 ISSN: 2181-1520

FRAZEOLOGIK ANTONIMIYA UNIVERSAL HODISA

Kamola Umarova
Magistrant,
Linvistika (nemis tili) mutaxassisligi,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Taqrizchi: filol.f.n., dotsent ***Yakubov S.***

https://doi.org/10.37547/jcass/volume02issue04-a6

Annotatsiya: Maqolada tilshunoslikda mavjud bo'lgan ikki frazeologik birlik o'rtasida antonimik munosabatlarning paydo bo'lishi shartlari aniqlangan va antonimik qarama-qarshiliklarning rasmiy belgilari tizimlashtirilgan.

Frazeologik antonimlarning kontrastli frazeologik birliklar va leksik birliklar muammosi tahlil qilingan. Antonimiya universal hodisa ekanligi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: frazeologik antonim, antonimiyaning mezonlari, ma’nolarning qarama-qarshiligi, semantik tuzilish, differentsial xususiyat.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКАЯ АНТОНИМИЯ – УНИВЕРСАЛЬНЫЙ ФЕНОМЕН

Камола Умарова

Аннотация. В статье определены условия возникновения антонимических отношений между двумя существующими фразеологизмами в лингвистике и систематизированы формальные признаки антонимических противоречий.

Анализируется проблема противопоставления фразеологизмов и лексических единиц фразеологических антонимов. Утверждается, что антонимия - явление универсальное.

Ключевые слова: фразеологический антоним, критерии антонимии, противопоставление значений, семантическая структура, дифференциальный признак.

PHRASEOLOGICAL ANTHONYMY IS A UNIVERSAL PHENOMENON

Kamola Umarova

Abstract. The article defines the conditions for the emergence of antonymic relations between two existing phraseological units in linguistics and systematizes the formal signs of antonymic contradictions.

ISSN: 2181-1520

The problem of opposition of phraseological units and lexical units of phraseological antonyms is analyzed. It is argued that antonymy is a universal phenomenon.

Key words: phraseological antonym, criteria of antonymy, opposition of meanings, semantic structure, differential feature.

Kirish

Antonimiya tabiiy tillarga xos universal hodisadir, u aqliy asosga tayangan milliy-individual yoki milliy-o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lmagan mexanizmlarda namoyon bo'ladi. 1 Shubhasiz, realiyalarda, milliy madaniyatga xos so'zlar o'rtasida antonimlik munosabati ko'rinmaydi. Masalan bavariya milliy libosi Trachtni yoki o'zbek milliy bosh kiyimi do'ppini olaylik, ularga hech qanday zid ma'no beradigan so'zni qarshi qo'ya olmaymiz. Antonimiya atrofida paradigmatikani amalga oshirish shakllari, leksik xilma-xilligi, frazemika sohasidagi munosabatlar, frazemalar tarkibi, sinonimik xarakterdagi munosabatlar, polisemantik iboralar va shakllangan frazemalar tematik qatorlarining o'ziga xos ma'nolari umumiy referentlik munosabatlari ham birlashadi. 2 Bularning barchasi alohida izlanishlarni va chuqur bilim bilan tahlil natijalarini talab qiladi. Misol uchun etwas mit der linken Hand erledigen va etwas mit der rechten Hand erledigen frazeologizmlari bir paradigmatik qolipga solingan. Ushbu frazeologizmlar tarkibidagi komponentlar - rechten va linken bir asosda yotadigan qarama- qarshi tomonlarni fodalaydi hamda frazeologizmlar orasida turiga ko'ra kontrar antonim hosil qiladi.

Antonimiya hodisasining mohiyati, so'z yoki tushunchalarning teskarisini tilda ifodalashda yotadi. Bunda nominativ birliklarning semantik qarama-qarshiligi kuzatiladi. I. A. Poddyachaya fikriga ko'ra, antonimiya yadroda mantiqiy modelga asoslangan qarama-qarshiliklarni anglatadi (tug'ma qobiliyat sifatning namoyon bo'lishini belgilaydi yoki tur tushunchalari qarama-qarshilikning namoyon bo'lish chegaralarini ifodalaydi), ammo til birliklari semantikasining tabiati va xususiyatlarini hisobga olmagan holda antonimik munosabatlarni xarakterlash mumkin emas.3 Ayniqsa, ko'p ma'noga ega so'zlarda bir leksik birlik so'zning barcha ma'nolariga qarama-qarshi qo'llana olmaydi. Masalan nemis tilidagi oddiygina weit ravishini tahlil qilsak, weit so'zining uzoq ma'nosi uchun nahe, keng ma'nosi uchun esa eng so'zini antonim sifatida olish mumkin.

Asosiy qism

Til birliklarining semantik tuzilishi eng kichik komponentlar ma'nosidagi – semalar – qat'iy tartibga solingan ierarxik tizimni aks ettiradi. Til birliklari strukturasi semantik tuzilishining bir xilligi yuzasidan bir-biriga antonimik munosabat shakllantiradi, ular paradigmatik jihatdan bitta differentsial xususiyat bilan farq qilishi kerak. Masalan: ein warmes Herz haben – bag'ri keng bo'lmoq, ein kaltes Herz haben – bag'ri tosh bo'lmoq. Misollar

[1] Соловьева Н. В., Шабанова В. П. Вестник МГОУ. № 5. Серия: Лингвистика. 2015, С. 41.

[2] Буряк Ю. А., Алифиренко Н. Ф. Антонимия в русской фразеологии и пути ее выявления: лингвокогнитивный подход. www.scienceforum.ru/2014/767/2142

[3] Поддячая И. А. Семантическая организация фразеологизмов-антонимов качественно-обстоятельственного класса русского и английского языков. Вестник ЧГПУ. Челябинск. № 4. 2009, С. 246–257.

ISSN: 2181-1520

strukturasining bir xilligi paradigma hisoblanadi. Paradigma til birliklari qolipi sanaladi. Bu fikrni N. V. Drachuk ham tasdiqlaydi, u antonimlarning semantik tuzilishidagi semaning ikki turini ajratib ko'rsatgan: oppozitsiya a'zolariga xos bo'lgan semalar, antonimik juftliklar paradigmasini yaratishni ta'minlaydigan oppositsion bo'laklarning umumiy semalari va antonimlar juftidagi oppozitsiyalar mavjudligini aniqlaydigan bir-biriga mos kelmaydigan, qarama-qarshi semalar. 4 Frazeologizmlar tarkibidagi komponentlar oppozitsion munosabati nafaqat leksemalar bilan, balki leksemalar ko'chma ma'noda qo'llanganligi sababli inkor so'zlar bilan ham yasalaishi mumkin: ein langes Gesicht machen frazeologizmiga antonim sifatida ein kurzes Gesicht machen ni olib bo'lmaydi. Buning uchun kein inkor so'zi qo'llaniladi – kein langes Gesicht machen kabi.

A. V. Kuninning so'zlariga ko'ra, frazeologik antonimlar frazeologik komponentlarda umumiy semantik qutblanish qiymatlari mavjud bo'lsagina hosil bo'ladi. 5 Frazeologizmlar antonimiyasi bir juft frazeologizmlar komponentlarining o'zaro semantik struktural jihatdan zid ma'no anglatishi orqali shakllanadi. Antonimik paradigma tarkibida umumiy ajralmas xususiyat mavjud bo'lgan va ma'nolarning haddan tashqari qarama-qarshiligini ifodalovchi differentsial xususiyatiga ega til birliklarini semantik jihatdan birlashtiradi. 6 Frazeologik antonimlarni erkin modellashtirib bo'lmaydi. jmdm. die Zunge binden (jmdn. zum Schweigen zwingen) - jmdm. die Zunge lösen (jmdn. zum Sprechen bringen) misolidagi lösen va binden fe'llari erkin tanlanmagan. Ular til taraqqiyoti jarayonida shakllangan na'munalar va har ikkala frazeologizm til tarkibida ayna shu holicha mavjud.

M. I. Sidorenko ta'kidlashicha, leksik antonim bilan taqqoslaganda frazeologik antonimlar kamroq izohlanadi. Frazeologik birliklarning semantik qarama-qarshiligi ularning o'zaro bog'liqligini taxmin qiladi. Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan frazeologik birliklar antonim bo'lmasligi ham mumkin, chunki ularning etimologik obrazlari bir-biri bilan diskursiv munosabatlar bilan bog'lanmagan. 7 Shunday qilib, ma'nolarning zidligi antonimlik munosabati uchun zaruriy shartdir, ammo bu frazeologik birliklar orasida ularning mavjudligini har doim ham ko'rsatib turmaydi. Chunki ba'zida frazeologizmlarning ma'nolari juda individual va kamdan-kam o'zaro bog'liq bo'ladi. 8 Shuning uchun ham har bir frazeologizmga antonim munosabatdagisini topib bo'lmaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, frazeologik birliklarning antonimiyasi ularning leksik tuzilishi va semantik ma'nosiga bog'liq. Masalan: ular yoki aynan bir turdagi so'zlar bilan kelishi- die erste Geige spielen-ilg'or bo'lmoq; die zweite Geige spielen- itning orqa oyog'i bo'lmoq, yoki antonim so'zlar bilan kelishi kerak. Masalan: große Sprünge machen-сделать большой прыжок; kleine Sprünge machen- сделать небольшой прижок.

[4] Драчук Н. В. Полисемия как один из факторов формирования антонимо-синонимических блоков (на примере качественных прилагательных): дис. канд. филол. наук. Волгоград, 2006, С. 204.

[5] Кунин А. В. Фразеология современного английского языка. 2-е изд., перераб. И доп. Москва, Высшая школа, 1996, С. 380.

[6] Соловьева Н. В., Шабанова В. П. Вестник МГОУ. № 5. Серия: Лингвистика. 2015, С. 42.

[7] Сидоренко М. И. Парадигматические отношения фразеологических единиц в современном русском языке. Учебное пособие по спецкурсу. Ленинград, Изд-во ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1982, С. 110.

[8] Соловьева Н. В., Шабанова В. П. Вестник МГОУ. № 5. Серия: Лингвистика. 2015, С. 43.

ISSN: 2181-1520

Frazeologizmlar qarama-qarshilik ularning barcha elementlariga tarqalganda ham antonimlik munosabatiga kirishadi. 9 Masalan: etwas in Verkehr bringen-muloqotga kirmoq, etwas außer Verkehr ziehen-muloqotdan chiqmoq misolida antonimlik munosabati in va außer predloglari hamda bringen va ziehen fe'llari o'rtasida yuzaga kelgan. Etwas frazeologizm tarkibida tashqaridan olinadigan so'z (Bruger Klassifikatsiyasi bo'yicha Externe) uchun shartli ravishda qo'llanilgan olmosh. Har ikkala frazeologizm tarkibidagi Verkehr oti boshqa bo'laklarsiz o'zini- o'zi inkor qila olmaydi. Shu sababli antonimlik xususiyati frazoelogizmlarning barcha elementlariga tarqalgan hisoblanadi.

Frazeologik antonimlarning semantikasini hisobga olgan holda, G. B. Mardanova frazeologik birliklar qarama-qarshilik darajasida semantikaning ta'sirini simmetrik va assimetrik yo'nalishda qayd etadi. Leksemalar singari, qarama-qarshi belgilarni bildiruvchi frazeologik birliklar ham qutblarda joylashgan va ular orasida uchinchi neytral opposzitsion bo'lak ham mavjud bo'ladi. Ushbu neytral oppozitsion bo'lakka nisbatan frazeologik antonimning joylashishiga qarab (uning yaqinligi yoki uzoqligi), uning qiymatini zaiflashtiradigan yoki kuchaytiradigan qo'shimcha komponentlar va juftlik paydo bo'lishi mumkin. Olimning ta'kidlashicha, antonimlar simmetrik yoki asimmetrik deb tan olingan. Antonimik frazeologik birliklarning uch darajasi mavjud: past, o'rta va yuqori. 10 Birinchi tur antonimlarning simmetrik semantik struktural oppozitsiyasi kuchli deb tan olinadi. Ikkinchi turga nosimmetrik qarama-qarshilik bilan ifodalangan frazeologik antonimlar va simmetrik frazeologik antonimlarning oppozitsiyasi mos kelmaydigan qo'shimcha tarkibiy qismlarga ega bo'lgan frazeologik antonimlar kiradi. Past antonimiya qarama-qarshi ma'no komponentlari qutbli bo'lmagan frazeologik birliklar assimetrik darajasiga xosdir.

Rus tilshunoslari Solovyova N. V., Shabanova V. P. lar M. M. K opylenko va Z. D. Popovalarning leksemaning semantik mazmuni tipologiyasini hisobga olgan holda frazeologik antonimlarning sema tasnifi ishonarli deb hisoblashadi. Ushbu tasnifga ko'ra, denotativ va konnotativ darajalarda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan antonimlar (die Augen aufmachen-внимательно смотреть, beide Augen zudrücken-нежелать видеть) ifodalanadi. Ba'zan antonimlar faqat konnotativ darajada qarama-qarshi bo'lib, konnotativ semalar esa mantiqiy asosga ega denotativ semalarga bog'liq bo'ladi. 11 Frazeologizmlar o'rtasidagi antonimlik munosabatini turli xalq olimlari bir biridan biroz farqli ravishda tashniflashadi. Xususan, rus tilida frazeologik antonimlarning tasniflanishi Y. N. Millerning fikriga muvofiq ikki turi farqlanadi, bularga quyidagilar kiradi:

1. Mutlaq, o'zgarmas qarama-qarshilikni ifodalovchi antonimlar. Bularni ham ikkiga ajratish mumkin.

a) Mavjud qarama-qarshi denotatlar munosabatining bir-biriga barqaror zid xarakterli antonimlar: радость- печаль, лечь- встать; Ebbe- Flut;

b) Dinamik, o'zgaruvchan qarama-qarshi antonimlar. Ular turli

[9] Зимина Л. П. Антонимия фразеологических единиц в современном немецком языке. Кемерого, 1977, С.764.

[10] Марданова Г. Б. Сопоставительный анализ фразеологических антонимов в английском и татарском языках. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Казань, 1998, С. 21.

[11] Соловьева Н. В., Шабанова В. П. Вестник МГОУ. № 5. Серия: Лингвистика. Москва, 2015, С. 44.

ISSN: 2181-1520

darajalarni bildiruvchi bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishdagi denotatlarni chaqiradi: вход- выход; mieten- vermieten;

2. nisbiy qarama-qarshilikni bildiruvchi antonimlar: высокий- низкий;

Frazeologizmlar alohida tarkibiy qismlari ma'nosining semantik aloqadorligi yoki avtonomiyasi mezoniga qo'shimcha ravishda K. L. Kiselyovaning ta'kidlashicha antonimik munosabatlar mavjudligining yana bitta sharti frazeologik birliklar orasidagi kuchli rasmiy o'xshashlikdir. Qarama-qarshi qo'yilgan frazeologik elementlar ichki shaklining o'zaro mos kelmasligi yoki rad qilinishi leksik yoki kontekstual antonimlarni shakllantiradi.[12] Kontextual antonimlar faqat bir matn doirasida bir biriga zid bo'la oladi. Bunday antonimlar alohida leksemalar sifatida mavjud emas.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan frazeologizmlar bir xil semantik tuzilishga ega va ularning ba'zilarida differentsial (farqli) komponentlar mavjud. Frazeologik birliklar semantik tarkibida ular ma'nolarining teskarisini ta'minlovchi yakuniy inkor mavjud bo'ladi va shu orqali antonimlari izlanadi. Frazeologik birliklarning leksik-semantik va sintaktik munosabatlari o'zaro uyg'un holda bo'ladi. Ular bir paradigmatik asosda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Буряк Ю. А., Алифиренко Н. Ф. Антонимия в русской фразеологии и пути ее выявления: лингвокогнитивный подход. www.scienceforum.ru/2014/767/2142
2. Драчук Н. В. Полисемия как один из факторов формирования антонимо-синонимических блоков (на примере качественных прилагательных): дис. канд. филол. наук. Волгоград, 2006, С. 204.
3. Зимина Л. П. Антонимия фразеологических единиц в современном немецком языке. Кемерого, 1977, С.764.
4. Киселёва К. Л. Антонимия во фразеологии: формальное сходство как условие противоположности значений [Электронный ресурс] // Диалог: межд. конф. по компьютерной лингвистике. [2011]. URL:http://www.dialog-21.ru/dialog2011/materials/pdf/31.pdf (дата обращения: 20.08.2014). С. 308.
5. Кунин А. В. Фразеология современного английского языка. 2-е изд., перераб. И доп. Москва, Высшая школа, 1996, С. 380.
6. Марданова Г. Б. Сопоставительный анализ фразеологических антонимов в английском и татарском языках. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Казань, 1998, С. 21.
7. Поддячая И. А. Семантическая организация фразеологизмов-антонимов качественно-обстоятельственного класса русского и английского языков. Вестник ЧГПУ. Челябинск. № 4. 2009, С. 246–257.
8. Сидоренко М. И. Парадигматические отношения фразеологических

[12] Киселёва К. Л. Антонимия во фразеологии: формальное сходство как условие противоположности значений [Электронный ресурс] // Диалог: межд. конф. по компьютерной лингвистике. [2011]. URL:http://www.dialog-21.ru/dialog2011/materials/pdf/31.pdf (дата обращения: 20.08.2014). С. 308.

ISSN: 2181-1520

единиц в современном русском языке. Учебное пособие по спецкурсу. Ленинград, Изд-во ЛГПИ им. А. И. Герцена, 1982, С. 110.

9. Соловьева Н. В., Шабанова В. П. Вестник МГОУ. № 5. Серия: Лингвистика. 2015, С. 41.
10. Рахматуллаев Ш., Маматов Н., Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. Тошкент, Ўқитувчи, 1980, 232 б.
11. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. Тошкент, Ўқитувчи, 1978, 408 б.
12. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. Тошкент, Фан, 1964, 212 б.
13. Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологияси. (ўқув қўлланма). Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019.
14. Ismatullayeva, N. R. Translation of phraseological units in Chinese and Uzbek languages. In Scientific research of the SCO countries: synergy and integration (International conference). Beijing, PRC, June (Vol. 24, pp. 45-50).